

TURKISTON JADIDLARINING MILLIY DAVLATCHILIK KONSEPSIYASINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI**Ochilov Iskandar Omongaldi o'g'li**

Urganch davlat universiteti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21722005>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik konsepsiyasining shakllanish bosqichlari tarixiy manbalar va zamonaviy tarixshunoslik asosida tahlil qilinadi. Jadidchilik harakatining ma'rifatparvarlikdan siyosiy harakat darajasiga qadar rivojlanish jarayoni, milliy uyg'onish g'oyalari hamda Turkiston Muxtoriyati faoliyatida namoyon bo'lgan davlatchilik tamoyillari yoritilgan. Tadqiqotda tarixiylik, qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi.

Kalit so'zlar: Turkiston, jadidchilik, milliy davlatchilik, milliy uyg'onish, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Turkiston Muxtoriyati, demokratik boshqaruv, ma'rifatparvarlik.

Аннотация. В данной статье на основе исторических источников и современных историографических исследований анализируются этапы формирования концепции национальной государственности туркестанских джадидов. Рассматривается процесс развития джадидского движения от просветительского течения до общественно-политического движения, а также идеи национального возрождения и принципы государственности, реализованные в деятельности Туркестанской автономии. В исследовании использованы исторический, сравнительный и системный методы анализа.

Ключевые слова: Туркестан, джадидизм, национальная государственность, национальное возрождение, Махмудходжа Бехбуди, Мунавваркары Абдурашидханов, Абдулла Авлони, Туркестанская автономия, демократическое управление, просветительство.

Abstract. This article examines the stages in the formation of the concept of national statehood developed by the Jadids of Turkestan based on historical sources and contemporary historiographical studies. It analyzes the transformation of the Jadid movement from an educational reform movement into a socio-political movement, highlighting the ideas of national awakening and the principles of statehood reflected in the activities of the Turkestan Autonomy.

The study employs historical, comparative, and systematic research methods.

Keywords: Turkestan, Jadidism, national statehood, national awakening, Mahmudhoja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Turkestan Autonomy, democratic governance, educational reform.

KIRISH

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston Rossiya imperiyasining mustamlaka hududlaridan biri sifatida murakkab siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni boshdan kechirdi.

Mustamlakachilik boshqaruvi mahalliy aholining siyosiy huquqlarini cheklab, milliy taraqqiyot imkoniyatlarini keskin qisqartirdi. An'anaviy boshqaruv tizimining izdan chiqishi, iqtisodiy qaramlikning kuchayishi hamda ta'lim va madaniyat sohalaridagi inqiroz milliy ziyolilar oldiga jamiyatni yangilash masalasini dolzarb vazifa sifatida qo'ydi. Aynan shunday tarixiy sharoitda jadidchilik harakati vujudga kelib, dastlab ma'rifatparvarlik g'oyalari orqali xalqni zamonaviy bilim va tafakkur asosida rivojlantirishni maqsad qildi.

Biroq vaqt o'tishi bilan ushbu harakat faqat ta'lim islohoti bilan cheklanmay, milliy davlatchilik, siyosiy erkinlik va o'zini o'zi boshqarish masalalarini ham o'z dasturiga kiritdi.

Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik konsepsiyasi bir vaqtning o'zida shakllanmagan, balki ijtimoiy-siyosiy voqealar, mustamlakachilik siyosati hamda xalqaro jarayonlar ta'sirida bosqichma-bosqich rivojlangan. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Fitrat va Mustafo Cho'qay kabi jadid namoyandalari millat taraqqiyotining asosiy omili sifatida zamonaviy ta'lim, milliy birlik, qonun ustuvorligi hamda demokratik boshqaruv tamoyillarini ilgari surdilar. Ularning qarashlarida milliy davlatchilik g'oyasi ma'rifiy islohotlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, keyinchalik siyosiy mazmun kasb etdi.

Ayniqsa, 1917-yilda Turkiston Muxtoriyatining e'lon qilinishi jadidlarning nazariy qarashlarini amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan muhim tarixiy tajriba bo'ldi.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Mazkur ish Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik konsepsiyasining shakllanish bosqichlarini tarixiylik va xolislik tamoyillari asosida o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi tarix fanida keng qo'llaniladigan tarixiy-tahliliy, qiyosiy-tarixiy, tizimli yondashuv, manbashunoslik hamda tarixshunoslik metodlariga tayandi. Tarixiylik metodi orqali jadidlar harakatining vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi. Qiyosiy-tarixiy metod yordamida jadidlarning turli davrlarda ilgari surgan siyosiy qarashlari hamda ularning evolyutsiyasi o'rganildi. Tizimli yondashuv esa milliy davlatchilik konsepsiyasini ma'rifatparvarlik, siyosiy islohot, milliy muxtoriyat va mustaqillik g'oyalari bilan uzviy bog'liq holda baholash imkonini berdi [1].

Tadqiqotda manbashunoslik metodidan foydalanish alohida ahamiyat kasb etdi. Jadid namoyandalarning maqolalari, publitsistik chiqishlari, davriy matbuot materiallari, qurultoy hujjatlari hamda mustaqillik yillarida nashr etilgan ilmiy tadqiqotlar qiyosiy ravishda tahlil qilindi. Shuningdek, tarixshunoslik metodi orqali turli davrlarda jadidchilik harakatiga berilgan ilmiy baholar o'rganildi. Sovet davri tarixshunosligida jadidlar faoliyati ko'proq sinfiy yondashuv asosida talqin qilingan bo'lsa, mustaqillik davri tadqiqotlarida ularning milliy davlatchilik g'oyalari va siyosiy faoliyati yangicha ilmiy mezonlar asosida qayta baholandi.

Begali Qosimovning "Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik" asarida jadidchilikning ma'naviy va siyosiy asoslari yoritilgan. Muallif jadidlarning asosiy maqsadi milliy taraqqiyotga erishish bo'lganini, ta'lim islohoti esa ushbu maqsadni amalga oshirishning muhim vositasi sifatida qaralganini asoslaydi [2]. Asarda Behbudiy, Avloniy, Fitrat va Munavvarqori faoliyati tahlil qilinib, ularning milliy davlatchilik haqidagi qarashlari tarixiy manbalar asosida izohlangan.

Dilorom Alimovanning "Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash" nomli monografiyasi jadidchilik harakatining shakllanish omillari, ijtimoiy bazasi va siyosiy rivojlanish bosqichlarini tadqiq etishga bag'ishlangan. Muallif jadidlarning faoliyatini faqat ma'rifatparvarlik bilan cheklab bo'lmagligini, ularning siyosiy dasturlarida milliy muxtoriyat va demokratik boshqaruv tamoyillari muhim o'rin egallaganini ilmiy dalillar bilan asoslaydi. Mazkur asar tadqiqot mavzusining tarixiy mazmunini ochishda muhim manbalardan biri hisoblanadi [3].

Qahramon Rajabovning "Jadidlar: mafkura, istiqloq va davlat qurilishi g'oyalari" asarida jadidlarning siyosiy qarashlari hamda Turkiston Muxtoriyatining tashkil topish jarayoni tahlil etilgan. Muallif milliy davlatchilik konsepsiyasining bosqichma-bosqich shakllanganini ko'rsatib, jadidlarning konstitutsiyaviy boshqaruv, parlament tizimi va fuqarolik jamiyati

haqidagi qarashlarini tarixiy hujjatlar asosida yoritadi [4]. Asarda Turkiston Muxtoriyatining milliy davlatchilik tarixidagi o'zini alohida baholangan.

Naim Karimovning "Jadidchilik va ma'rifat fidoyilari" asari jadid namoyandalarning hayoti, ijodi va ijtimoiy-siyosiy faoliyatini yoritishga bag'ishlangan. Muallif Behbudiy, Fitrat, Avloniy va Munavvarqori faoliyatini keng tahlil qilib, ularning ma'rifiy g'oyalari keyinchalik milliy davlatchilik konsepsiyasiga asos bo'lganini ta'kidlaydi. Asarda jadidlarning publitsistik merosi va siyosiy qarashlari tarixiy manbalar asosida sharhlangan [5].

Mahalliy tarixshunoslikda jadidchilik masalasi keng o'rganilgan bo'lsa-da, Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik konsepsiyasining shakllanish bosqichlarini kompleks va bosqichli yondashuv asosida tadqiq etish dolzarbligicha qolmoqda. Shu bois mazkur tadqiqotda mavjud ilmiy qarashlar umumlashtirilib, jadidlarning milliy davlatchilik haqidagi nazariy qarashlari hamda ularning tarixiy rivojlanish bosqichlari tizimli ravishda tahlil qilinadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik konsepsiyasi tasodifiy yoki qisqa vaqt ichida yuzaga kelgan siyosiy qarash emas, balki mustamlakachilik sharoitida shakllangan uzoq davom etgan g'oyaviy evolyutsiyaning mahsuli hisoblanadi. Tahlillar asosida mazkur konsepsiyaning rivojlanish jarayoni to'rtta asosiy bosqichga ajratildi. Birinchi bosqich XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ma'rifatparvarlik harakatining vujudga kelishi bilan tavsiflanadi. Bu davrda Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy va boshqa jadidlar xalqni zamonaviy ta'lim orqali taraqqiyot sari yetaklashni asosiy vazifa deb bildilar. Ularning fikricha, milliy ong va zamonaviy bilim shakllanmasdan turib, siyosiy mustaqillik yoki adolatli davlat qurish mumkin emas edi. Demak, milliy davlatchilik konsepsiyasining dastlabki paydevori aynan ma'rifat va milliy o'zlikni anglash g'oyalari asosida qurildi [6].

Ikkinchi bosqich 1905–1916-yillarni qamrab olib, bu davrda jadidlar faoliyatida siyosiy yo'nalish sezilarli darajada kuchaydi. Rossiyada yuz bergan 1905-yilgi inqilob va ayrim siyosiy erkinliklarning paydo bo'lishi Turkiston ziyolilariga ham o'z qarashlarini ochiqroq ifoda etish imkonini berdi. Jadid matbuoti, xususan, "Taraqqiy", "Sadoyi Turkiston", "Oyina" kabi nashrlar orqali mahalliy boshqaruvni isloh qilish, qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq vakillari ishtirokidagi boshqaruv tizimini joriy etish zarurligi ilgari surildi. Tadqiqot davomida ushbu davrga oid manbalar tahlili jadidlar siyosiy tafakkurida milliy manfaatlarni himoya qiluvchi zamonaviy davlat barpo etish g'oyasi tobora ustuvor ahamiyat kasb eta boshlaganini ko'rsatdi [7].

Uchinchi bosqich 1917-yil voqealari bilan bog'liq bo'lib, jadidlar milliy davlatchilik haqidagi nazariy qarashlarini amaliyotga tatbiq etishga harakat qildilar. Fevral inqilobidan so'ng Rossiya imperiyasida yuzaga kelgan siyosiy vaziyat Turkiston musulmonlari uchun tarixiy imkoniyat yaratdi. O'lka musulmonlari qurultoylarida muxtoriyat masalasi muhokama qilinib, 1917-yil noyabr oyida Qo'qonda Turkiston Muxtoriyati e'lon qilindi [8]. Muxtoriyat hukumati dasturida parlament boshqaruvi, hokimiyatlar bo'linishi, fuqarolarning teng huquqliligi, millatlararo totuvlik, vijdon erkinligi va mahalliy o'zini o'zi boshqarish kabi demokratik tamoyillar o'z aksini topgan. Bu esa jadidlarning milliy davlatchilik konsepsiyasi faqat milliy mustaqillik g'oyasigina emas, balki zamonaviy demokratik boshqaruv tamoyillariga ham asoslanganini tasdiqlaydi.

To'rtinchi bosqich Turkiston Muxtoriyatining tugatilishidan keyingi davrni o'z ichiga oladi. Bolsheviklar tomonidan Muxtoriyatning qurolli kuch bilan tugatilishi jadidlarning siyosiy faoliyatini to'xtata olmadi.

Ularning bir qismi mamlakatni tark etishga majbur bo'lib, xorijda Turkiston mustaqilligi g'oyalarini targ'ib etishda davom etdi. Xususan, Mustafo Cho'qay o'z asarlarida Turkiston kelajagini demokratik respublika, qonun ustuvorligi va xalq suverenitetiga asoslangan davlat sifatida tasavvur qildi. Bu holat jadidlarning davlatchilik konsepsiyasi vaqtinchalik siyosiy vaziyat mahsuli emas, balki uzoq muddatli strategik qarash ekanini ko'rsatadi [9].

Begali Qosimov jadidchilikni, avvalo, milliy uyg'onish harakati sifatida baholagan bo'lsa, Dilorom Alimova uning siyosiy mazmunini chuqurroq ochib beradi. Qahramon Rajabov esa Turkiston Muxtoriyatini jadidlar davlatchilik g'oyalarining amaliy ifodasi sifatida tavsiflaydi. Mazkur tadqiqot ushbu ilmiy qarashlarni umumlashtirib, milliy davlatchilik konsepsiyasining shakllanishini uzluksiz tarixiy jarayon sifatida talqin qilish imkonini berdi.

Jadidlarning asosiy xizmati faqat yangi usul maktablarini ochish yoki matbuotni rivojlantirish bilan chegaralanmagan. Ular zamonaviy milliy davlatning nazariy asoslarini ishlab chiqishga ham muhim hissa qo'shdilar. Ularning qarashlarida ta'lim, milliy birlik, iqtisodiy taraqqiyot, qonun ustuvorligi, fuqarolik jamiyati va vakillik boshqaruvi o'zaro bog'liq holda talqin etilgan. Bu tamoyillar bugungi demokratik davlat qurilishi konsepsiyalari bilan hamohangligi bilan e'tiborga loyiq. Shuningdek, tadqiqot davomida jadidlar faoliyatining ayrim jihatlari hali ham chuqurroq o'rganishni talab qilishi aniqlandi [10]. Xususan, ularning konstitutsiyaviy islohotlar, iqtisodiy mustaqillik, mahalliy boshqaruv tizimi va xalqaro munosabatlarga oid qarashlari alohida tadqiqot mavzusi bo'lishi mumkin. Bu yo'nalishdagi izlanishlar Turkiston jadidlarining siyosiy merosini yanada to'liqroq ochib berishga xizmat qiladi.

Xulosa

Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik konsepsiyasi tarixiy zarurat va mustamlakachilik siyosatiga nisbatan milliy javob sifatida bosqichma-bosqich shakllanganini ko'rsatdi. Dastlab ma'rifatparvarlik harakati ko'rinishida namoyon bo'lgan jadidchilik keyinchalik siyosiy mazmun kasb etib, milliy muxtoriyat, demokratik boshqaruv, qonun ustuvorligi va xalq manfaatlariga asoslangan davlat barpo etish g'oyalarini ilgari surdi.

1917-yilda Turkiston Muxtoriyatining tashkil etilishi jadidlarning nazariy qarashlari amaliy ifodasining muhim namunasi bo'ldi.

Jadidlar milliy davlatchilikni faqat siyosiy mustaqillik bilan emas, balki zamonaviy ta'lim, milliy birlik, fuqarolik mas'uliyati va jamiyatni isloh qilish jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda talqin qilganlar. Ularning siyosiy merosi bugungi O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish g'oyalari bilan tarixiy va g'oyaviy jihatdan mushtarakdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – 400 b.
2. Alimova D.A. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – Toshkent: Akademnashr, 2019. – 320 b.
3. Rajabov Q. Jadidlar: mafkura, istiqloq va davlat qurilishi g'oyalari. – Toshkent: Akademnashr, 2021. – 288 b.
4. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999. – 352 b.
5. Munavvarqori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2003. – 304 b.

6. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 160 b.
7. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000. – 384 b.
8. Cho ‘qay M. Turkiston qayg‘usi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003. – 336 b.
9. Azamat Ziyo. O ‘zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: Sharq, 2000. – 368 b.
10. Jo‘rayev N. O ‘zbekiston tarixi. Mustaqil O‘zbekiston davri. – Toshkent: Sharq, 2011. – 640 b.